



BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARNING BADIY VA AXBOROTLI MATNLAR MAZMUNINI ANGLASH VA UNI IZOHLASH MALAKALARINI RIVOJLANTIRISH

Saparbaeva Zarina

*Nukus davlat pedagogika instituti
Boshlang'ich ta'lim fakulteti talabasi*

***Annotatsiya:** Ushbu maqolada ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish, xalqaro aloqalarni o'rnatish, o'quvchi yoshlarning ilmiy-tadqiqot va innovatsion faoliyatini, eng avvalo, yosh avlodning ijodiy g'oyalari va ijodkorligini har tomonlama qo'llab-quvvatlash, PIRLS dasturining o'ziga xosligi yoritib berilgan.*

***Kalit so'zlar:** PIRLS, integratsiya, analiz, sintez, metodologik asoslar.*

Globalashuv sharoitida shiddat bilan rivojlanib borayotgan davr davlat vajamiyat oldiga dolzarbligi va qamrovi kun sayin ortib borayotgan zamonaviy talablarni qo'ymoqda. Olamshumul strategik maqsadlarga erishish, yangi marralarni zabt etish, rivojlangan davlatlar qatoridan o'rin olish uchun mamlakatda bilimli, tajribali va zamonaviy fikrlaydigan yuksak salohiyatli kadrlar, mutaxassislarning o'rni beqiyos. Bunday raqobatbardosh kadrlarga bo'lgan ehtiyojni qondirish zamirida inson kapitali, sodda qilib aytganda, inson va uning salohiyatini kashf etish hamda uni buyuk maqsadlarga erishishga safarbar qilish kabi ulug'vor vazifalar turadi. 1961-yilda ish boshlagan Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (Organisation for Economic Cooperation and Development – OECD) o'tgan davr mobaynida moliyaviy sohada yuzaga kelgan turli muammolarning yechimini topish ustida izlanishlar olib bormoqda. Ayniqsa, yangi asr ostonasida ushbu tashkilot negizida dunyo ta'limining asosiy bo'g'ini bo'lgan umumiy o'rta ta'limni rivojlantirish maqsadida PISA (The Programme for International Student Assessment) – O'quvchilarning savodxonligini baholash bo'yicha xalqaro dastur ishlab chiqildi. Iqtisodiy tashkilotning ta'lim sohasiga murojaat etishining boisi shundaki, har qanday soha uchun kadrlar maktablarda, oddiy sinfxonalarda ulg'ayishidir. Shu ma'noda OECDdek ulkan tuzilma ham davlatlarning ta'lim tizimiga qancha mablag' sarflayotgani va ular nechog'lik samara berayotgani reytingini tuzishga majbur bo'ldi. Keyinchalik bu tadqiqotga boshqa davlatlarning ham qiziqishi ortib, unda qatnasha boshladi.

Shuningdek, mazkur tizimda ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish, xalqaro aloqalarni o'rnatish, o'quvchi yoshlarning ilmiy-tadqiqot va innovatsion faoliyatini, eng avvalo, yosh avlodning ijodiy g'oyalari va ijodkorligini har tomonlama qo'llab-quvvatlash hamda rag'batlantirish maqsadida



hukumat qaroriga muvofiq PIRLS topshiriqlari namunalaridan dars mavzusini mustahkamlash, takrorlashda foydalanish maqsadga muvofiqdir. Ta'kidlash lozimki, PIRLS dasturining o'ziga xosligi shundaki, u hech bir ishtirokchi mamlakat o'quv dasturlarini takrorlamaydi, shu sababli PIRLS topshiriqlarini integratsiyalashgan bo'lishi mumkin.

O'qish darslarida o'quvchilarning badiiy va axborotli matnlar mazmunini anglash va uni izohlash malakalarini rivojlantirish maqsadida quyidagi mavzular tahlil qilanadi. Boshlang'ich ta'lim o'qituvchilari ushbu tahlil orqali darslikda berilgan mavzular ustida ishlashni o'rganadilar. Tadqiqot doirasida asosiy e'tibor tushunishni namoyon qilishdan o'zlashtirilgan ma'lumotlarni qanday qilib yangi loyihalar va vaziyatlarda qo'llay olish qobiliyatlarini namoyon qilishga qaratilmoqda.

O'quvchi bu jarayonning faol qatnashuvchisi bo'lib, ma'no yaratadi, matn ustida mushohada yuritadi va samarali o'qish strategiyalarini ongli ravishda tanlab qo'llaydi. Har bir matn turi odatiy shakl va qoidalarga amal qilgan holda o'quvchiga matnni sharhlashga yordam beradi. Har qanday matn turli shaklga ega bo'lishi mumkin. Bular an'anaviy kitoblar, jurnallar, hujjatlar va gazetalar, shuningdek, raqamli ko'rinishdagi yozma shakllarni ham o'z ichiga oladi.

PIRLS boshlang'ich sinf o'quvchilarining sinf va sinfdan tashqari o'qishini baholashda ikkita keng qamrovli maqsadga, ya'ni "badiiy tajriba orttirish", "axborotni olish va undan foydalanish"ga qaratiladi. O'z navbatida, ushbu maqsadlarning har biri to'rtta keng tushunish jarayonini birlashtiradi. Bular: diqqatni jamlash va aniq ko'rsatilgan ma'lumotlarni topish; to'g'ridan-to'g'ri xulosalar chiqarish; kontent (internetda veb –saytida joylashtirilgan barcha ma'lumotlar tarkibi) va matn elementlarini baholash va tanqid qilish; g'oyalar va axborotni talqin qilish va uyg'unlashtirish.

Boshlang'ich sinflarning o'qish darslarida o'quvchilar nutqini o'stirish vositalaridan biri, turli uyushtirilgan qayta hikoyalashdir. Maktab tajribasida to'liq, qisqartirib, tanlab va ijodiy qayta hikoya qilish turlari mavjud. Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun matnni to'liq yoki matnga yaqin qayta hikoyalash ancha oson, boshqa turlari esa nisbatan qiyinroqdir. Qayta hikoyalashda o'qilgan hikoya mazmuni yuzasidan o'qituvchining savoli, o'quvchilarni hikoyaning detallari haqida, ayrim voqealar o'rtasidagi bog'lanishning sabab-natijalari haqida fikrlashga qaratilishi lozim. Asar syujetining rivojlanishida qatnashuvchi shaxslar, ularning xatti-harakati asosiy rol o'ynaydi. O'quvchilar asar mazmunini unda ishtirok etuvchi shaxslar va ularning xatti-harakati, xarakterli xususiyatlarini tahlil qilish yordamida yaxshi anglab yetadilar. O'qituvchining savoli asar qahramonlari nima qilgani,



ularning u yoki bu xatti-harakati qayerda va qanday sharoitda yuz bergani haqida soʻzlab berishga, voqealarni izchil bayon qilinishga va oʻzaro bogʻliqligini yoritishga yoʻnaltirilishi lozim.

Oʻquvchi oʻqilgan asar mazmunini oʻqituvchi savoli yordamida aytib berishida faqat analizdan emas, sintezdan ham foydalaniladi: ayrim lavhalar oʻzaro bogʻlanadi (sintezlanadi), bir-biriga taqqoslanadi, ular yuzasidan muhokama yuritiladi va xulosa chiqariladi.

Koʻpincha boshlangʻich sinf oʻquvchilari qatnashuvchi shaxslar xatti-harakatini yaxshi tushunmasliklari, baʼzan notoʻgʻri yoki yuzaki tushunishlari natijasida asar mazmunini anglab yetmaydilar. Shuning uchun ham oʻqituvchi savolni juda oʻylab tuzishi, u bolani fikrlashga, oʻylashga majbur etadigan, qatnashuvchi shaxslarning xatti-harakati, voqealarning bogʻlanishi yuzasidan muhokama yuritishga undaydigan, ularni oʻzaro qiyoslashga, ijobiy va salbiy tomonlarini aniqlashga yordam beradigan boʻlishi lozim. Oʻquvchi asarda qatnashuvchilarning xatti-harakatini qanchalik aniq koʻz oldiga keltira olsa, u hikoyaning asosiy mazmunini shunchalik chuqur tushunadi, shunchalik mustaqil qayta hikoya qilib beradi.

Oʻqilgan asar mazmunini izchil ravishda qayta hikoyalash uning rejasini tuzishga yordam beradi. Reja tuzishda oʻquvchi hikoyani tarkibiy qismlarga boʻladi va har qaysi qismdagi asosiy fikrni aniqlaydi. Bularning hammasi analitik ish hisoblanadi. Keyin sintetik ishga oʻtiladi, yaʼni bolalar hikoya qismlariga sarlavha topadilar. Oʻquvchilar oʻqituvchi rahbarligida reja tuzish jarayonida oʻqilgan hikoyaning har bir qismida bosh va ikkinchi darajali masala nimalardan iboratligi haqida, qanday qilib fikrni qisqa va aniq ifodalash haqida oʻylaydilar.

Sarlavha topish ustida ishlash, oʻquvchilar topgan sarlavhani jamoaviy muhokama qilish, reja tuzish jarayonining oʻzi bolaning fikrlash qobiliyatini faollashtirishi, unda oʻz mulohazasini isbotlash, asoslash odatlarini tarbiyalashi lozim. Shunday qilib, asar mazmuni bilan birinchi tanishish oʻquvchilardan ongli ishlashni, yaʼni voqealarni, qatnashuvchilar tarkibini analiz qilishni talab etadi. oʻqish bilan bogʻliq holda bajariladigan bunday mantiqiy ishlar asta-sekin murakkablasha boradi.

Boshlangʻich taʼlim oʻquvchilarning badiiy va axborotli matnlar mazmunini anglash va uni izohlash malakalarini rivojlantirishda asosiy eʼtibor tushunishni namoyon qilishdan oʻzlashtirilgan maʼlumotlarni qanday qilib yangi loyihalar va vaziyatlarda qoʻllay olish qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilmoqda. Bu esa oʻquvchilarni oʻqish davomida fikrlash qobiliyatlarini oʻstirish bilan birgalikda hayotga tayyorlab boradi.



Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Prezidentimiz nutqlari. Sport ta'limi va ilmini rivojlantirish bo'yicha takliflar ko'rib chiqildi. 03.11.2022
2. 2022 — 2026-YILLARGA MO'ljALLANGAN YANGI O'ZBEKISTONNING TARAQQIYOT STRATEGIYASI TO'G'RISIDA. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni.
3. Muhayyo, D. (2017). THE ROTOR CONSTRUCTION OF COTTON RAW IN APPEARING VERTICAL BOUNDARY. Интернаука, (9-2), 76-78.
4. Davlatova, M. K. (2021). The process of transformation of philosophy understanding as factor of information culture of the period of the English renaissance (XVI c.). Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 1(5), 949-957.
5. Davlatova, M. X. (2018). The easy way of learning English with the help of songs. Теория и практика современной науки, (4 (34)), 578-581.
6. Давлатова, М. Х. (2021). The Expression of resultative and depictive constructions in english and uzbek languages. МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА, 4(5).
7. Давлатова, М. Х. (2021). Результативликнинг аспектиал тадқиқотлар доирасида ўрганилиши. Scientific progress, 2(2), 1678-1683.
8. Shadmanov, K. B., Davlatova, M. H., Ostonova, S. N., & Radjabova, A. T. (2020). ENGLISH RENAISSANCE: TRANSFORMATION OF 61 PHILOSOPHY UNDERSTANDING AS A FACTOR OF INFORMATION CULTURE DEVELOPMENT OF THE EPOCH. Cross-Cultural Studies: Education and Science, 5(1), 61-67.
9. Давлатова, М. (2020). Aspectual and lexico-semantic classification of verbs. Сўз санъати халқаро журнали, 1, 2020.
10. Давлатова, М. Х. (2018). Работа над видеотекстом на занятиях английского языка. Теория и практика современной науки, (4 (34)), 242-246.
11. Hasanovna, D. M. (2022). On the interrelationship of resultive and causative meanings. World Bulletin of Public Health, 9, 212-215.
12. Hasanovna, D. M. (2022). Aspectual and lexical-semantic classification of verbs. Open Access Repository, 8(2), 116-121.